
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Mavsumiy ishlar to'g'risida ma'lumot bersangiz

Javob: **O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi mehnat kodeksining 491-moddasida mavsumiy ishlar** - iqlim va boshqa tabiiy sharoitlar tufayli muayyan davr (mavsum) davomida bajariladigan ishlar mavsumiy ishlardir.

Mavsumiy ishlarning davomiyligi, qoida tariqasida, olti oydan oshmasligi kerak.

Mavsumiy ishlarning, shu jumladan olti oydan ortiq davr (mavsum) ichida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ayrim mavsumiy ishlarning ro'yxatlari va mazkur ayrim mavsumiy ishlarning eng ko'p davomiyligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.hamda shu kodeksning **492-moddasida mavsumiy ishlarni bajarish to'g'risida mehnat shartnomasi tuzishning o'ziga xos xususiyatlari** to'g'risidagi shart mehnat shartnomasida ko'rsatilishi kerak.

Mavsumiy xodimlarni ishga qabul qilish chog'ida sinov muddati belgilanmaydi.

Mavsumiy xodimlar bilan mehnat shartnomasi mavsumning davomiyligidan oshmaydigan muddatga tuziladi.

A.Toshpulatov - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-06-16 16:58:21